

UO'T: 631.21:631.52:631.547:631.55

**QASHQADARYO VILOYATI SHAROITIDA KARTOSHKA TURLI
NAVLARINING O'SISHI, BARG YUZASI HOSIL BO'LISH XUSUSIYATLARI VA
HOSILDORLIGI**

**THE GROWTH, LEAF SURFACE FORMATION AND YIELD OF POTATO
VARIETIES IN THE CONDITIONS OF THE SOUTHERN KASHKADARYA
REGION**

Ostonaqulov T. E

q.-x.f.d., professor,

Toshpulatova S. T

doktorant, Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada kartoshka ertagi ekin sifatida o'stirilganda tezpishar va o'rtatezpishar navlari o'simligining o'sishi, paykalda barg sathining shakllanishi hamda hosildorligi bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. Eng yuqori barg sathi o'suv davri boshida ($0,31\text{-}0,48 \text{ m}^2$) oxirida esa ($0,78\text{-}0,99 \text{ m}^2$) Қувонч-16/56м, Gala, Binella, Sylvana, Evolution, Saviola, Ҳамкор-1150, Picasso, Боғизофон, Lucinda navlarida kuzatildi. Eng yuqori tovar hosildorlik esa (27,7-34,9 t/ga) Gala, Бахро-30, Arizona, Sylvana, Evolution, Saviola, Lazar, Labella, Manitu, Ranomi, Lucinda navlaridan olindi.

Kalit so'zlar: kartoshka navi, barg sathi, hosildorlik, tovar hosil

Abstract. The article presents the results of research on the growth of early and mid-ripening potato varieties, the formation of leaf area and yield in the fallow period when grown as a fallow crop. The highest leaf area was observed at the beginning of the growing season ($0,31\text{-}0,48 \text{ m}^2$) and at the end ($0,78\text{-}0,99 \text{ m}^2$) in the Kuvonch-16/56m, Gala, Binella, Sylvana, Evolution, Saviola, Hamkor-1150, Picasso, Boghizagon, Lucinda varieties. The highest marketable yield (27,7-34,9 t/ha) was obtained from the Gala, Bahro-30, Arizona, Sylvana, Evolution, Saviola, Lazar, Labella, Manitu, Ranomi, Lucinda varieties.

Keywords: potato variety, leaf area, yield, marketable yield

Kirish. Barg asosiy fotosintez jarayoni kechadigan organ hisoblanib, ildiz orqali o‘zlashtirilgan suv va boshqa oziq moddalar bargga yetkazilib, quyosh nuri, xlorofill donachalari ishtirokida anorganik moddalardan organik moddalar sintezlanadi va moddalar almashinushi ta’minlanadi. Paykalda (ekinzorda) fotosintezning faol borishi, fotosintetik potensialning samarali o‘tishi, o‘simlik bargidagi xlorofill pigmentlarining miqdoriga bog‘liq. Kartoshka navlarini ertagi ekin sifatida o‘stirilganda o‘sishi, barg sathi shakllanishi, undagi xlorofill miqdori va fotosintez sof mahsuldorligi hamda hosildorligi yetarlicha o‘rganilmagan. Shuni hisobga olib biz 2022-2024 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Bog‘obod MFY Inoq Abdullayev shaxsiy tomorqa uchastkasi sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida maxsus dala tajribasi o‘tkazdik.

Tadqiqotning maqsadi-kartoshka tezpishar va o‘rtatezpishar navlarini ertagi ekin sifatida o‘stirib, o‘simlik o‘sishi, barg shakllanishi va hosildorligini o‘rganishdan iborat.

Material va metodlar. Tajribada obyekt sifatida kartoshkaning 5 ta tezpishar, 24 ta o‘rtatezpishar, jami 29 ta navlari olinib, 90x20 sm sxemada, 6-8 sm chuqurlikda ekilib, o‘zaro taqqoslandi.

Barcha o‘rganilgan navlar uchun gektarida tup qalinligi bir xil, ya’ni 55500 tupni tashkil etdi. Delyankaning maydoni 9 m^2 . Qaytariqlar soni 3 ta bo‘ldi. Ekish 15-18 fevralda amalga oshirildi. Tadqiqotlarda barcha kuzatish, o‘lchash va hisoblashlar hamda parvarishlash tadbirlari umumqabul qilingan uslub va tavsiyalarga muvofiq o‘tkazildi [1,2,3,4,5].

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Barg asosiy fotosintez jarayoni kechadigan organ hisoblanib, ildiz orqali o‘zlashtirilgan suv va boshqa oziq moddalar bargga yetkazilib, quyosh nuri, xlorofill donachalari ishtirokida anorganik moddalardan organik moddalar sintezlanadi va moddalar almashinushi ta’minlanadi.

O‘simlik o‘sishi – bo‘yi, asosiy poyalar va yon shoxlar soni bo‘yicha o‘rganilgan navlar shonalash davridan boshlab keskin farqlanib, jadal o‘sishdan palak sarg‘ayishgacha kuzatildi, keyin esa susaygani qayd etildi. Eng baland bo‘yli (77,2-98,5 sm), serpoyali (4,2-4,7 dona) va shoxlangan (11,0-18,3 dona) o‘simliklar Esmee, Binella, Gala, Бахро-30, Almera, Arizona, Sylvana, Evolution, Saviola, Picasso, Бофизофон, Ҳамкор-1150 kabi

navlarda kuzatildi. Kartoshka o‘rganilgan navlari barglanish bo‘yicha keskin farqlanib, gullah va palak sarg‘ayish davrigacha barg hosil bo‘lishi jadal kechishi, eng ko‘p barg shakllanishi (bir tupda 242,0-361,0 donagacha) Gala, Almera, Kurado, Arizona, Sylvana, Evolution, Saviola, Xamkor-1150, Picasso, БОГИЗОҒОН navlarida bo‘ldi.

Ertagi ekin sifatida kartoshka tezpishar va o‘rtatezpishar navlar o‘simlik barg sathining o‘zgarish dinamikasi sezilarli farqlanib, eng yuqori barg sathi o‘suv davri davomida Қувонч-16/56м (0,37-0,81m²), Gala (0,31-0,78 m²), Binella (0,35-0,83 m²), Бахро-30 (0,42-0,91 m²), Almera (0,38-0,84 m²), Kurado (0,41-0,87 m²), Arizona (0,43-0,90 m²), Sylvana (0,46-0,94 m²), Evolution (0,48-0,99 m²), Saviola (0,45-0,93 m²), Xamkor-1150 (0,41-0,82 m²), Picasso (0,45-0,95 m²), БОГИЗОҒОН (0,42-0,92 m²), Lucinda (0,42-0,90 m²) navlarda kuzatildi.

Ajratilgan moslanuvchan navlar ertagi ekin sifatida o‘stirilganda eng yuqori hosildorlik (28,4-35,6 t/ga) olinib, standart navlarga nisbatan 1,8-6,8 t/ga (106,3-123,6%) qo‘shimcha hosilni taminladi.

Tajriba o‘tkazilgan 2022-2024 yillarda o‘rtacha hosildorlik gektaridan tezpishar navlarda 24,5-28,4 tonnani, o‘rtatezpishar navlarda esa 22,8-35,6 tonnani tashkil etdi. Shundan tovar hosil tezpishar navlarda 23,3-27,7 t/ga yoki 94,1-97,5 % ni, o‘rtatezpishar navlarda 21,0-34,9 t/ga yoki 90,9-98,7 % ekanligi ma’lum bo‘ldi. Standart navlarga nisbatan qo‘shimcha hosildorlikni tezpishar navlardan Gala, Binella 1,3-2,2 t/ga (104,2-108,4 %) ni, o‘rtatezpishar navlardan esa Saviola, Lucinda, Evolution, Sylvana, Arizona, Manitu, Labella, Ranomi, Бахро-30 1,8-6,8 t/ga (106,3-123,6 %) ni ta’minladi. Yillar bo‘yicha hosildorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda eng yuqori hosildorlik ko‘rsatkichlari (24,5-37,4 t/ga) 2024 yil kuzatildi. Nisbatan past ko‘rsatkich (21,6-34,4 t/ga) 2023 yil qayd etildi. 2022 yil ko‘rsatkichlari oraliq ko‘rinishda bo‘ldi.

Umuman, sug‘orish orqali va ertagi ekin sifatida kartoshka parvarish qilingani uchun hosildorlik keskin farqlanmadidi.

Ertagi kartoshka navlari o‘rtacha hosildorlik bilan tovar hosildorligi orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik hisoblanganda, korrelyatsiya koeffitsiyenti **r=0,993 (R²=0,8862)** ga teng bo‘lib, yuqori darajada ijobiy bog‘lanishni ko‘rsatdi.

Xulosa. Kartoshka navlari ertagi ekin sifatida o'stirilganda, eng yuqori barg sathi o'suv davri boshida ($0,31\text{-}0,48 \text{ m}^2$) oxirida esa ($0,78\text{-}0,99 \text{ m}^2$) Қувонч-16/56м, Gala, Binella, Sylvana, Evolution, Saviola, Ҳамкор-1150, Picasso, Бофизоғон, Lucinda navlarida kuzatildi. Eng yuqori tovar hosildorlik (27,7-34,9 t/ga) Gala, Бахро-30, Arizona, Sylvana, Evolution, Saviola, Lazar, Labella, Manitu, Ranomi, Lucinda navlarida qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва, "Колос". 1985. –С. 280-285.
2. Методика исследований по культуре картофеля. Москва, (ВНИИКХ). 1967. –С. 209
3. Ostonaqulov T.E. Seleksiya va urug'chilik asoslari. Toshkent, ILM ZIYO, 2017. –Б. 256.
4. Ostonaqulov T.E. Kartoshkachilik. Darslik. Samarqand. 2023. –Б. 320
5. Третьяков Н.Н. Практикум по физиологии растений. Москва. Колос. 1982. – С.75-126.